

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.I.23.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**“TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO‘JALIGINI
MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI” MILLIY
TADQIQOT UNIVERSITETI**

PRIMOVA SHAXNOZA KOMILJONOVNA

**KOMMUNAL XIZMAT KO‘RSATISH KORXONALARIDA
AUDIT TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

**Content of dissertation the abstract of doctor of Philosophy (PhD) on
economical sciences**

Primova Shaxnoza Komiljonovna

Kommunal xizmat ko'rsatish korxonalarida audit tizimini takomillashtirish..... 3

Примова Шахноза Комилжоновна

Совершенствование системы аудита в предприятиях коммунальных
услуг..... 29

Primova Shahnoza Komiljonovna

Improvement of the Audit System in Public Utility Enterprises..... 57

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of publications 61

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.I.23.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**“TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO‘JALIGINI
MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI” MILLIY
TADQIQOT UNIVERSITETI**

PRIMOVA SHAXNOZA KOMILJONOVNA

**KOMMUNAL XIZMAT KO‘RSATISH KORXONALARIDA AUDIT
TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan B2025.2.PhD/Iqt5491 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.tsue.uz) va «ZiyoNet» Axborot-ta'lim portali (www.ziynet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Mamatkulov Murodjon Shukurovich iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	Maxsudov Begmatjon Yuldashaliyevich iqtisodiyot fanlari doktori, professor Baxadirov Alisher Komilovich iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Yetakchi tashkilot:	Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSC.03/2025.27.12.I.23.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil "___" _____ kuni soat ___ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.:(99871) 239-01-49; faks: (99871) 239-41-23; e-mail: info@tsue.uz

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ _____ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-01-49; faks: (99871) 239-41-23; e-mail: info@tsue.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "___" _____ kuni tarqatildi.
(2026-yil "___" _____ dagi ___ raqamli reyestr bayonnomasi).

S.U. Mexmonov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

U.V. G'afurov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, i.f.d., professor

S.K. Xudoyqulov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d.,
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiyotida kommunal xizmat ko'rsatish korxonalarida audit tizimining samarali tashkil etilishi moliyaviy hisobdorlik va xarajatlar shaffofligini oshirib, tarif shakllanishida asoslanganlikni kuchaytiradi hamda resurslar isrofi va korrupsiya xavfini kamaytirishga xizmat qiladi. Audit (ichki va tashqi) orqali daromad-harajatlar, debitor qarzdorlik, aktivlardan foydalanish samaradorligi va investitsiya loyihalarining ijrosi tizimli baholanib, boshqaruv qarorlarida axborot asimmetriyasi qisqaradi va xizmat sifatiga ta'sir etuvchi "nuqsonlar zanjiri" barvaqt aniqlanadi. Bu, ayniqsa, energiya va suv yo'qotishlari, hisob-kitob intizomi, subsidiyalar maqsadlilik hamda texnik xizmat ko'rsatish sifatini nazorat qilishda korxonaning moliyaviy barqarorligi va aholi ishonchini mustahkamlaydi. "Ichki va tashqi audit samarali hisobdorlikni ta'minlashga hissa qo'shadi"¹. Ushbu yo'nalishni rivojlantirish uchun kommunal korxonalarda audit tizimining iqtisodiy samara kanallari va natijadorlik ko'rsatkichlarini chuqur tahlil qilishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar dolzarb hisoblanadi.

Jahonda kommunal xizmat ko'rsatish korxonalarida audit tizimini takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar moliyaviy shaffoflikni kuchaytirish, tariflar asoslanganligini oshirish va resurslardan samarali foydalanishni ta'minlash nuqtayi nazaridan izchil ravishda olib borilmoqda. Mazkur muammo bo'yicha ustuvor tadqiqot yo'nalishlari, asosan, riskka asoslangan audit va ichki nazorat tizimini (COSO) kommunal sektor xususiyatlariga moslashtirish, operatsion audit orqali energiya yoki suv yo'qotishlari, debitor qarzdorlik va xarajatlar samaradorligini baholash metodlarini rivojlantirish, raqamli audit (ERP/SCADA/smart-hisoblagichlar ma'lumotlari, data analytics) asosida uzluksiz monitoring va aniqlash mexanizmlarini joriy etish, davlat xaridlari, investitsiya loyihalari va subsidiyalar bo'yicha komplayens-audit hamda korrupsiya xavflarini kamaytirish usullarini takomillashtirish, xizmat sifati va barqarorlik (ESG) ko'rsatkichlarini audit mezonlariga integratsiya qilish kabilarni qamrab oladi.

O'zbekistonda kommunal xizmat ko'rsatish korxonalarida audit tizimini takomillashtirish bo'yicha belgilangan vazifalar, avvalo, moliyaviy hisobdorlik va tarif shakllanishida shaffoflikni kuchaytirish, ichki nazorat-ichki audit funksiyalarini riskka asoslangan yondashuvda yo'lga qo'yish hamda aktivlar, debitor qarzdorlik va investitsiya dasturlari ijrosi bo'yicha muntazam monitoringni ta'minlashga qaratilgan. Amalda esa korporativ boshqaruvni mustahkamlash doirasida kommunal korxonalarda ichki audit xizmatini tashkil etish, uning hisobotdorligini tizimlashtirish va nazorat organlari/kuzatuv kengashlari tomonidan davriy eshituv amaliyotini joriy etish chora-tadbirlari amalga oshirilmoqda. Xususan, sohaviy hujjatlarda "ichki audit xizmatini tashkil etish va uning xodimlarini tayinlash... shuningdek, har chorakda uning hisobotlarini eshitib borish"² talabi belgilangan. Shuning uchun kommunal sektorda auditni raqamlashtirish, risklarni baholash va

1 [https://forum.ibgp.net.br/wp-content/uploads/2018/01/IFAC-International-Framework-Good-Governance-in-the-Public-Sector-2014.pdf?utm_source="GOOD GOVERNANCE IN THE PUBLIC SECTOR"](https://forum.ibgp.net.br/wp-content/uploads/2018/01/IFAC-International-Framework-Good-Governance-in-the-Public-Sector-2014.pdf?utm_source=GOOD%20GOVERNANCE%20IN%20THE%20PUBLIC%20SECTOR)

2 <https://uzsuv.uz/media/page/2025/02/>

samaradorlikni o'ldash mexanizmlarini ilmiy asosda ishlab chiqishga qaratilgan tadqiqotlar mazkur vazifalarni natijali bajarishda dolzarb ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi PF-16-son "O'zbekiston -2030" strategiyasini «Atrof-muhitni asrash va «yashil iqtisodiyot» yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida», 2024-yil 21-fevraldagi PF-37-son "O'zbekiston-2030" strategiyasini "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash yili Davlat dasturi to'g'risida", 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, 2023-yil 15-avgustdagi PQ-278-son "Ko'p kvartirali uylarni boshqarishni yanada samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 4-avgustdagi PQ-346-son "Ko'p kvartirali uylarni boshqarish tizimini yanada takomillashtirish va boshqaruvchi tashkilotlarni moliyaviy sog'lomlashtirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2018-yil 19-sentyabrdagi PQ-3946-son "O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 1-fevraldagi 47-son "Ko'p kvartirali uylarni boshqarishni takomillashtirish va kommunal xizmatlar ko'rsatishni yanada yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 3-yanvardagi 3-son "Ko'p kvartirali uylarni boshqarish faoliyatini amalga oshirish qoidalarini tasdiqlash to'g'risida"gi qarorlari va ushbu sohadagi boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishiningi. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga mos ravishda bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Kommunal xizmat ko'rsatish korxonalarida audit tizimini tashkil etish va uni takomillashtirish masalasi xalqaro va milliy miqyosda bir qator olimlar tomonidan o'rganilgan. Xususan, xalqaro miqyosda G.Loudon, M.Spencer, R.Simons, J.Ridley³ kabi yetakchi tadqiqotchilar audit tizimining nazariy asoslari, strategik boshqaruvdagi o'rni, auditorlik faoliyatining transformatsiyasi va boshqaruv samaradorligiga ta'siri borasida muhim ilmiy izlanishlar olib borganlar. Ularning asarlarida auditni faqat moliyaviy nazorat vositasi emas, balki tashkilotning strategik faoliyatini qo'llab-quvvatlovchi mexanizm sifatida ko'rib chiqish zarurligi ta'kidlangan.

Rossiya olimlari L.A.Axmedova, V.P.Lazarev, V.M.Mironenko, I.V.Smetanin, N.M.Romanova va A.S.Yarullin⁴lar tomonidan esa kommunal xizmatlar ko'rsatish

3 Loudon G. Internal Audits' Role in Corporate Governance. – Florida: Institute of Internal Auditors Research Foundation, 2003. – 119 p., Spencer M. Strategic Management Accounting and Control. – Cambridge: Cambridge University Press, 2015. – 236 p., Simons R. Levers of Control: How Managers Use Innovative Control Systems to Drive Strategic Renewal. – Boston: Harvard Business School Press, 1995. – 208 p., Ridley J. Cutting Edge Internal Auditing. – Chichester: John Wiley & Sons, 2008. – 422 p.

4 Axmedova L.A. Organizatsionno-metodicheskiye osnovy audita na unitarnykh predpriyatiyax jilishno-kommunalnogo xozyaystva. Avtoref. diss. na sois. uch. step. k.e.n. Astraxan, 2004. - S. 24., Lazarev V.P. Audit v jilishno-kommunalnom xozyaystve. – M.: Finansy i statistika, 2014. – 264 s., Mironenko V.M. Audit otchetnosti

sohasida auditning huquqiy asoslari, tashkiliy mexanizmlari, tashqi va ichki audit integratsiyasi hamda jamoatchilik nazorati tizimlari keng yoritilgan. Bu olimlarning tadqiqotlarida, ayniqsa, ko'p kvartirali uy-joylar boshqaruvida auditorlik tekshiruvlarining moliyaviy shaffoflik va xizmatlar sifatiga ta'siri alohida o'rganilgan.

O'zbekistonlik tadqiqotchilardan N.B.Abdusalomova, R.D.Dusmuratov, Sh.I.Ilhomov, M.Sh.Mamatkulov, T.T.Sattorov, K.B.Urazov⁵ kabi olimlar milliy sharoitda auditorlik tizimini tashkil etish, uning metodologik asoslari, jamoatchilik ishtiroki, mulkdorlar huquqlari va audit samaradorligi kabi jihatlar bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borganlar. Shunga qaramay, mavjud tadqiqotlarda aynan kommunal xizmat ko'rsatish korxonalarida audit jarayonlarini bosqichma-bosqich rejalashtirish, metodikasini obyekt xususiyatlariga moslashtirish, audit tavsiyalarini monitoring qilish, tarif shakllanishidagi audit rolini tahlil qilish kabi yo'nalishlar yetarli darajada tizimli yoritilmagan. Bundan tashqari, xorijiy tajribalarni O'zbekiston sharoitiga moslashtirishga doir konseptual asoslar, ichki va tashqi audit integratsiyasini yo'lga qo'yish, raqamli audit tizimlarini joriy etish bilan bog'liq yondashuvlar hali to'liq ishlab chiqilmagan. Shu sababli, mazkur dissertatsiya mavjud ilmiy qarashlarni mantiqan rivojlantiradi, kommunal xizmat ko'rsatish sohasida auditorlik tizimini zamonaviy talablar asosida takomillashtirish va amaliyotga tatbiq etishga qaratilgan yangi nazariy-uslubiy yechimlarni taklif etadi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi «Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti» - milliy tadqiqot universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi kommunal xizmat ko'rsatish korxonalarida audit tizimini takomillashtirish bo'yicha ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

kommunal xizmat ko'rsatish korxonalarida audit tizimini tashkil etishning nazariy-metodologik asoslarini aniqlash, auditning mohiyati, maqsadi, funksional vazifalari va turli shakllari o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklarni ochib berish orqali milliy audit tizimining konseptual modelini ishlab chiqish;

xalqaro tajribalar asosida kommunal xizmatlar sohasida auditorlik faoliyatining huquqiy, tashkiliy va metodologik jihatlarini tahlil qilish, ilg'or yondashuvlarni O'zbekiston amaliyotiga moslashtirish imkoniyatlarini asoslash va mos mexanizmlarni taklif etish;

товариществу собственников жилья. Автoref. diss. на соис. uch. step. k.e.n. Moskva, 2009. - S. 27., Smetanin I.V. Audit v sisteme munitsipalnogo upravleniya. - M.: INFRA-M, 2016. - 192 s., Romanova N.M. Munitsipalныe uslugi i finansovyy kontrol. - M.: Yurayt, 2017. - 228 s., Yarullin A.S. Gosudarstvennyy audit v sfere kommunalныx uslug. - M.: Yuniti-Dana, 2015. - 215 s.

⁵ Abdusalomova N.B. Ichki audit asoslari. - T.: Iqtisod-Moliya, 2017. - 224 b., Dusmuratov R.D. Byudjet jarayonida ichki auditning o'rni va ahamiyati. O'quv qo'llanma. - T.: Iqtisodiyot, 2018. - 192 b., Ilhomov Sh.I. Davlat moliyasida audit nazoratining o'rni. - T.: Iqtisodiyot, 2020. - 176 b., Mamatkulov M.Sh. Kommunal xizmat ko'rsatish tizimi korxonalarida boshqaruv hisobi metodologiyasini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent - 2021. - 67 b., Sattorov T.T. Audit va moliyaviy nazorat. - T.: Fan, 2016. - 210 b., Urazov K.B. Auditorlik faoliyatini tashkil etish va o'tkazish. - T.: Iqtisod-Moliya, 2021. - 200 b.

O‘zbekistonning kommunal xizmat ko‘rsatish sohasida faoliyat yuritayotgan korxonalarda audit tizimining amaliy holatini o‘rganish, audit jarayonlari, nazorat mexanizmlari, hujjat aylanishi va mulkdorlar ishtirokini baholash asosida tizimdagi mavjud kamchiliklarni aniqlash;

audit jarayonlarini bosqichma-bosqich rejalashtirish, tashkil etish va monitoring qilishning uslubiy asoslarini ishlab chiqish, ayniqsa, ichki va tashqi audit o‘rtasidagi integratsiyani ta‘minlash, ularning bir-birini to‘ldiruvchi funksiyalarini shakllantirishga doir takliflarni asoslash;

audit tekshiruvlarida riskka asoslangan yondashuvlar, indikatorlar asosida baholash usullari va tarif shakllanishi jarayonidagi auditorlik nazoratini kuchaytirish mexanizmlarini ishlab chiqish;

audit tavsiyalarini amaliyotga joriy etish, ularning bajarilishi ustidan nazorat mexanizmlarini kuchaytirish va ularni raqamli texnologiyalar orqali monitoring qilish bo‘yicha konseptual asoslarni ishlab chiqish;

kommunal xizmat ko‘rsatish sohasida auditorlik faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti bo‘lib O‘zbekistonning kommunal xizmat ko‘rsatish sohasida faoliyat yuritayotgan korxonalaridagi audit tizimi hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti kommunal xizmat ko‘rsatish korxonalarida audit tizimini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar yig‘indisidan iborat.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada guruhlash, taqqoslash, induksiya va deduksiya, analiz va sintez, iqtisodiy-statistik tahlil, tizimli tahlil, taqqoslash, monografik o‘rganish, ekspert baholash, matematik modellashtirish, grafik va jadvali tahlil, hamda eksperimental yondashuv kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

uy-joy mulkdorlari shirkatlari va boshqaruvchi tashkilotlar faoliyatining kompleks audit indikatorlar tizimi tariflar tuzilishi, xarajatlar elementlarining tarkibiy dinamikasi hamda xizmat ko‘rsatish sifatining auditorlik bahosi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni aniqlashga qaratilgan integral baholash mezonlarini kiritish orqali takomillashtirilgan;

uy-joy mulkdorlari shirkatlari moliyaviy faoliyatida maqsadli tushumlarning funksiyaviy xarajatlar tuzilmasi bilan o‘zaro mutanosibligini tahlil qilish, resurslardan foydalanish samaradorligini aniqlash va xizmatlar natijadorligini baholash imkonini beruvchi audit ketma-ketligi taklif etilgan;

uy-joy xo‘jaligi subyektlarida audit salohiyatini baholash indikatorlari va mezonlari asosida har bir subyekt uchun hisoblanuvchi umumiy ballni “yuqori salohiyatli” (26-30 ball), “o‘rtacha salohiyatli” (20-25 ball), “past salohiyatli” (15-19 ball), “xavfli zona” (14 va undan past) darajalari bo‘yicha tasniflash taklifi asoslangan;

uy-joy mulkdorlari va fuqarolar murojaatlari va jamoatchilik fikrini auditorlik dalili sifatida qabul qilishning institutsional modeli uni kommunal xizmat ko‘rsatish sohasi audit amaliyotiga integratsiya qilish orqali takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

uy-joy mulkdorlari shirkati va boshqaruvchi tashkilotlar faoliyatini moliyaviy va ijtimoiy samaradorlik mezonlari asosida baholash imkonini beruvchi “kompleks audit indikatorlar tizimi” ishlab chiqilgan;

xatoliklar va buzilishlarni aniqlashda “moliyaviy geterogenlik”, “strukturaviy tafovutlar” va “hisobotlar-aro mutanosiblik” negizida shakllangan “koyeffisiyentli mutanosiblik indeksi (KMI)” asosida tahririy xatolarni aniqlash uslubi ishlab chiqilgan;

audit obyektlarini ustuvorlik darajasiga ko‘ra segmentlashni ta‘minlovchi to‘rt o‘lchovli xavf indeksi asosida obyektlarni saralash algoritmi ishlab chiqildi va amaliyotda sinovdan o‘tkazish tavsiya etilgan;

tariflar va xizmatlar sifati o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalarni aniqlashga yo‘naltirilgan funksional xarajatlar va maqsadli tushumlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlovchi audit algoritmi ishlab chiqilgan;

fuqarolarning murojaatlari va jamoatchilik fikrlarini auditorlik dalili sifatida qabul qilishni ta‘minlovchi institutsional model ishlab chiqilgan;

audit jarayonini tizimlashtirish maqsadida algoritmlashtirilgan bosqichma-bosqich audit modeli ishlab chiqilgan;

har bir audit metodikasini obyektning tashkiliy-huquqiy va moliyaviy xususiyatlariga mos holda tanlash imkonini beruvchi “audit uyg‘unlik matritsasi” modeli ishlab chiqilgan;

O‘zbekiston sharoitida ijtimoiy ta‘sirni hisobga oluvchi “majburiy ijtimoiy ta‘sir koeffitsiyenti” asosida xizmat natijadorligini baholash uslubi taklif etilgan;

O‘zbekiston sharoitida “Auditda majburiy ijtimoiy ta‘sir koeffitsiyenti”ni qo‘llash orqali uy-joy mulkdorlari shirkatlari va boshqaruvchi tashkilotlar faoliyati samaradorligini baholash asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot ishida foydalanilgan ma‘lumotlar rasmiy manbalardan olinganligi, jumladan O‘zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo‘mitasi, O‘zbekiston Respublikasi qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi, shuningdek, O‘zbekiston auditorlar Palatasining rasmiy ma‘lumotlaridan foydalanganligi hamda tadqiqot natijasi sifatida qilingan xulosa va berilgan takliflar tegishli tashkilotlar amaliyotiga joriy etilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati uy-joy mulkdorlari shirkatlari va boshqaruvchi tashkilotlar faoliyatini moliyaviy audit orqali baholashda ilgari surilgan indikatorlar, algoritmlar va metodologik yondashuvlar orqali ushbu yo‘nalishdagi mavjud nazariy-metodologik bo‘shliqlarni to‘ldirishi bilan belgilanadi. Tadqiqotda ishlab chiqilgan tizimli yondashuvlar auditni faqat moliyaviy nazorat mexanizmi emas, balki xizmat sifatini oshirish, tarif shakllanishi va xarajatlar tuzilmasi o‘rtasidagi muvozanatni ta‘minlovchi strategik vosita sifatida qarash imkonini beradi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, unda ilgari surilgan ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalar audit jarayonlarining bosqichma-bosqich tashkiliy strukturasi, hisob-kitob mexanizmlari va audit natijalarining monitoringini ta‘minlash imkonini beradi. Xususan, auditorlik ko‘rsatkichlari tizimi, xatolik va buzilishlarni aniqlash algoritmlari, moliyaviy yo‘qotishlarni baholash usullari orqali auditning sifati va aniqligi oshiriladi, shuningdek, uy-joy mulkdorlari va aholi fikri va murojaatlarini

audit daliliga aylantirish orqali jamoatchilik nazoratini kuchaytirish bo'yicha ilg'or yondashuvlar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Kommunal xizmat ko'rsatish korxonalarida audit tizimini takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar asosida:

uy-joy mulkdorlari shirkatlari va boshqaruvchi tashkilotlar faoliyatining kompleks audit indikatorlar tizimi tariflar tuzilishi, xarajatlar elementlarining tarkibiy dinamikasi hamda xizmat ko'rsatish sifatining auditorlik bahosi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlashga qaratilgan integral baholash mezonlarini kiritish orqali takomillashtirish taklifi O'zbekiston Respublikasi qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi tomonidan amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligining 2025-yil 26 iyundagi 16-06/7106-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklifni amaliyotga tatbiq etish natijasida uy-joy mulkdorlari shirkatlari va boshqaruvchi tashkilotlarda hisob siyosatini faoliyat turlari va xizmat funksiyalariga mos ravishda shakllantirish imkoniyati yaratildi, bu esa hisobotlardagi aniqlik va xolislik darajasini oshirishga, moliyaviy jarayonlarning tahlil qilish va nazorat qilish samaradorligini kuchaytirishga xizmat qilgan;

uy-joy mulkdorlari shirkatlari moliyaviy faoliyatida maqsadli tushumlarning funksiyaviy xarajatlar tuzilmasi bilan o'zaro mutanosibligini tahlil qilish, resurslardan foydalanish samaradorligini aniqlash va xizmatlar natijadorligini baholash imkonini beruvchi audit ketma-ketligi taklifi O'zbekiston Respublikasi qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi tomonidan amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligining 2025-yil 26 iyundagi 16-06/7106-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklifni amaliyotga joriy etish natijasida uy-joy mulkdorlari shirkatlarining moliyaviy faoliyati ustidan amaliy baholash va qaror qabul qilishni takomillashtirishga xizmat qiluvchi innovatsion audit algoritmi bo'lib, u nafaqat tushum va xarajatlar o'rtasidagi real nisbatni aniqlaydi, balki xizmatlar sifati, moliyaviy barqarorlik va iqtisodiy natijalarning ichki bog'liqligini ham aniqlash imkonini bergan;

uy-joy xo'jaligi subyektlarida audit salohiyatini baholash indikatorlari va mezonlari asosida har bir subyekt uchun hisoblanuvchi umumiy ballni "yuqori salohiyatli" (26-30 ball), "o'rtacha salohiyatli" (20-25 ball), "past salohiyatli" (15-19 ball), "xavfli zona" (14 va undan past) darajalari bo'yicha tasniflash taklifi O'zbekiston Respublikasi qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi tomonidan amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligining 2025-yil 26 iyundagi 16-06/7106-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklifni amaliyotga joriy etish natijasida xizmat ko'rsatish tannarxining shakllanishi, xarajatlar tarkibining iqtisodiy bahosi va xizmat sifatining amaliy ko'rsatkichlari o'rtasidagi uyg'unlik baholanib, audit faoliyatining obyektivlik darajasi hamda boshqaruv qarorlarining asoslanganligi sezilarli darajada oshirgan;

uy-joy mulkdorlari va fuqarolar murojaatlari va jamoatchilik fikrini auditorlik dalili sifatida qabul qilishning institutsional modelini kommunal xizmat ko'rsatish sohasi audit amaliyotiga integratsiya qilish orqali takomillashtirish taklifi

O‘zbekiston Respublikasi qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi tomonidan amaliyotga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligining 2025-yil 26 iyundagi 16-06/7106-sonli ma‘lumotnomasi). Mazkur taklifni amaliyotga joriy etish natijasida uy-joy mulkdorlari va fuqarolarning fikr va murojaatlari audit jarayonida mustaqil va ishonchli dalil manbai sifatida foydalanilishi ta‘minlanib, auditorlik xulosalarining ijtimoiy asosliligi va ta‘sirchanligini kuchaytirgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta, jumladan 2 ta respublika va 2 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyada muhokama qilingan va ijobiy xulosalar olingan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 9 ta ilmiy ish, jumladan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta ilmiy maqola, jumladan 3 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 170 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o‘tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublikada fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr qilingan ishlar va tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «O‘zbekistonda kommunal xizmat ko‘rsatish korxonalarida audit tizimining nazariy-uslubiy asoslari» deb nomlangan birinchi bobida O‘zbekistonda uy-joy mulkdorlari shirkatlari va boshqaruvchi tashkilotlar holati va ularda xorijiy tajribalarni qo‘llash, O‘zbekistonda uy-joy mulkdorlari shirkatlari va boshqaruvchi tashkilotlarda auditni tashkil etishning nazariy va uslubiy asoslari, uy-joy mulkdorlari shirkatlari va boshqaruvchi tashkilotlarda audit o‘tkazishning xususiyatlari to‘g‘risida so‘z boradi.

Resurslar va salohiyatni baholash amaliyotida zamonaviy yondashuvlar asosida ishlab chiqilgan modellar uy-joy mulkdorlari shirkatlari va boshqaruvchi tashkilotlarda audit jarayonining aniq, tizimli va obyektiv olib borilishini ta‘minlaydi. O‘zbekiston sharoitida ushbu subyektlarning resurs holati va ulardan foydalanish salohiyati keskin farqlanadi. Shu bois, ularni umumiy mezonlar asosida baholash samarador natija bermaydi. Aynan shunday vaziyatda baholash modellarining moslashuvchanligi va kontekstual yondashuvi dolzarb hisoblanadi.

Amaliyotda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan modellar orasida uchta asosiy yondashuv ajralib turadi. Birinchi yondashuv -bu ko‘p mezonli baholash modelidir. Ushbu modelda har bir tashkilotning muhim faoliyat yo‘nalishlari bo‘yicha

indikatorlar tanlanadi va ularni balli tizim asosida baholash orqali yakuniy audit salohiyati aniqlanadi. Masalan, moliyaviy intizom, texnik infratuzilma, inson resurslari, axborot tizimlari mavjudligi, jamoaviy ishtirok va hisobot berish intizomi kabi yo‘nalishlar asosida umumiy ko‘rsatkich shakllantiriladi. Har bir ko‘rsatkich 1 dan 5 gacha ball bilan baholanadi.

Ikkinchi model -bu salohiyat matritsasi bo‘lib, unda ichki va tashqi resurslar bir vaqtning o‘zida tahlil qilinadi. Ichki resurslar -bu kadrlar, texnik baza, boshqaruv tizimi; tashqi resurslar esa -moliyaviy manbalar, normativ-huquqiy muhit, axborot-kommunikatsiya infratuzilmasidir. Ushbu matritsa orqali har bir tashkilot o‘zining mavjud imkoniyatlarini va zaif tomonlarini aniq ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘ladi, shuningdek, audit chuqurligi va ustuvor yo‘nalishlarini belgilash mumkin bo‘ladi.

1-jadval

Uy-joy xo‘jaligi subyektlarida audit salohiyatini baholash indikatorlari va mezonlari⁶

Indikator nomi	Baholash mezonlari	Ball (1-5)	Izoh
Moliyaviy barqarorlik	To‘lovlar intizomi, debitor/kreditor nisbatlari	1-5	5 -to‘lovlar to‘liq, 1 -jiddiy qarzdorlik mavjud
Texnik infratuzilma holati	Jihozlarning zamonaviyligi va ish holati	1-5	5 -to‘liq modernizatsiyalagan, 1 -foydalanishga yaroqsiz
Kadrlar malakasi	Sertifikatlar soni, kasbiy tayyorgarlik	1-5	5 -barcha xodimlar sertifikatlangan
Axborot texnologiyalari mavjudligi	Elektron boshqaruv va hisobot tizimi	1-5	5 -ERP yoki CRM tizimlari mavjud
Jamoaviy ishtirok	Yig‘ilishlar soni va ishtirok darajasi	1-5	5 -muntazam yig‘ilishlar va yuqori faollik
Hisobot intizomi	Yil davomida hisobotlarni taqdim etish	1-5	5 -barcha hisobotlar o‘z vaqtida taqdim etilgan

Uchinchi model -bu xavf-salohiyat nisbati modelidir. Bu yondashuv orqali tashkilotda mavjud resurslar darajasi bilan yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan moliyaviy, texnik va boshqaruv tavakkalchiliklari o‘rtasidagi nisbat aniqlanadi. Agar resurslar salohiyati past bo‘lib, xavflilik darajasi yuqori bo‘lsa, audit chuqurlashtirilgan va tez-tez takrorlanadigan shaklda tashkil etilishi zarur. Aksincha, yuqori salohiyatli tashkilotlarda audit tekshiruvlari tanlab olingan asosiy yo‘nalishlarda qisqaroq va monitoringga asoslangan tarzda amalga oshiriladi.

Yuqoridagi indikatorlar asosida har bir subyekt uchun umumiy ball hisoblanadi va quyidagicha tasniflanadi: 26-30 ball -yuqori salohiyatli; 20-25 ball -o‘rtacha salohiyatli; 15-19 ball -past salohiyatli; 14 va undan past -xavfli zona.

⁶ Muallif tomonidan tuzilgan

Mazkur amaliy yondashuvlar uy-joy xo‘jaligi subyektlarida auditni aniq, asosli va farqlashtirilgan asosda tashkil etish imkonini beradi. Shuningdek, ular orqali salohiyatni oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar rejalashtiriladi, moliyaviy intizom va boshqaruv sifati tizimli ravishda yaxshilanadi.

Intensiv va nisbiy ko‘rsatkichlar asosida o‘tkazilgan statistik tahlil uy-joy fondini boshqarishda hududlararo samaradorlik keskin farqlanishini ko‘rsatadi. Toshkent shahrida 100 ta uyga to‘g‘ri keladigan moddiy-texnik baza obyektlari va qo‘shimcha xizmatlar sonining yuqoriligi boshqaruv faoliyatining nisbatan intensiv va iqtisodiy barqaror ekanligini anglatadi. Xorazm viloyatida esa 100 ta uyga to‘g‘ri keladigan xodimlar sonining respublika o‘rtacha ko‘rsatkichidan qariyb 2,5 baravar pastligi audit xavfining yuqori darajada ekanligini ko‘rsatadi. Audit qamrovining pastligi, resurs bilan ta‘minlanganlik indeksining 0,58 ni tashkil etishi mazkur hududda ichki va tashqi audit mexanizmlarini ustuvor ravishda joriy etish zaruratini ilmiy jihatdan asoslaydi.

2-jadval

Uy-joy fondini boshqarishda intensivlik va audit ehtiyoji ko‘rsatkichlarining hududlararo tahlili (2025-y.)⁷

Nisbiy va intensiv ko‘rsatkichlar	Respublika	Toshkent shahri	Xorazm viloyati
100 ta uyga to‘g‘ri keladigan boshqaruvchi subyektlar, dona	28,8	15,0	20,8
100 ta uyga to‘g‘ri keladigan xodimlar, kishi	141,4	131,8	56,7
100 ta uyga to‘g‘ri keladigan MTB obyektlari, dona	63,1	70,0	30,8
1 boshqaruvchi subyektga to‘g‘ri keladigan o‘rtacha xodimlar, kishi	4,91	8,77	2,73
1 boshqaruvchi subyektga to‘g‘ri keladigan qo‘shimcha xizmatlar, dona	0,55	1,59	0,36
100 ta uyga to‘g‘ri keladigan auditdan o‘tgan subyektlar, dona	8,0	7,9	3,0
Audit bilan qamrov darajasi (subyektlarga nisbatan), %	27,8 %	52,4 %	14,6 %
Resurs bilan ta‘minlanganlik indeksi	1,00	1,34	0,58
Audit xavfi yuqori bo‘lgan hududiy zona darajasi	O‘rtacha	Past-o‘rtacha	Yuqori
Ichki audit joriy etish ustuvorligi	O‘rtacha	Tavsiya etiladi	Tavsiya etiladi

Uy-joy mulkdorlari shirkatlari boshqaruvining axborot bazalari bugungi kunda zamonaviy boshqaruv talablariga to‘liq javob bera oladigan darajada emasligidan kelib chiqib, tarmoq korxonalarining hisob tizimlariga asosan an‘ana sifatida shakllanib qolgan hujjatchilik tizimiga tayanib qolmoqda, ya‘ni tashqi foydalanuvchilarning axborot ta‘minotini qondirish, birinchi navbatda, soliq va

⁷ Muallif tomonidan tuzilgan

boshqa nazorat organlari oldidagi hisobdorlik va javobgarlikni ta'minlashga urinishga ko'nikib qolingan.

Shu asosda aytish mumkinki, O'zbekistonda uy-joy mulkdorlari shirkatlari va boshqaruvchi tashkilotlarning institutsional shakllanishi hali yakuniga yetmagan. Bu esa ularning auditga asoslangan, shaffof va javobgar boshqaruv tizimini yaratishida sezilarli to'siqlarni yuzaga keltirmoqda. Mavjud muammolarni bartaraf etish uchun esa xorijiy tajribalarni mahalliy sharoitga moslashtirgan holda tizimli yondashuv zarur.

Rossiyada uy-joy mulkdorlari shirkatlari va boshqaruvchi tashkilotlar faoliyati chuqur institutsionallashtirilgan bo'lib, ularning ustidan auditorlik va jamoatchilik nazorati kuchli tizim orqali amalga oshiriladi. Bunday yondashuv O'zbekistonda joriy etilishi uchun mustahkam asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Yevropa Ittifoqi davlatlarida ko'p kvartirali uy-joy fondini boshqarish tizimi yuqori darajadagi professionallik, ijtimoiy-iqtisodiy mas'uliyat va raqamli texnologiyalar bilan uyg'unlashgan holda rivojlangan. Germaniya, Shvetsiya, Niderlandiya, Daniya, Fransiya va Finlyandiya kabi mamlakatlarda uy-joy sohasini boshqarish mustaqil professional kompaniyalar tomonidan amalga oshiriladi. Ushbu kompaniyalar ko'p hollarda shartnoma asosida ishlaydi va ularning faoliyati qonunchilik, mulkdorlar nazorati hamda tashqi auditorlar tomonidan muntazam baholab boriladi.

Dissertatsiyaning «**Ko'p kvartirali uylarni boshqarishda uy-joy mulkdorlari shirkatlari va boshqaruvchi tashkilotlarda audit o'tkazish amaliyoti**» deb nomlangan ikkinchi bobida uy-joy mulkdorlari shirkatlari va boshqaruvchi tashkilotlarda hisob siyosatini shakllantirish, uy-joy mulkdorlari shirkatlari va boshqaruvchi tashkilotlarda tushumlar va xarajatlar hamda tariflar auditini o'tkazish tartiblari, uy-joy mulkdorlari shirkatlari va boshqaruvchi tashkilotlar moliyaviy hisobotlari auditini o'tkazish holati to'g'risida so'z boradi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobida ko'p kvartirali uylarni boshqarishda uy-joy mulkdorlari shirkatlari va boshqaruvchi tashkilotlarda audit o'tkazishning amaldagi holati va amaliy jihatlari tadqiq etilgan. Ushbu bobda audit jarayonlarini tashkil etish, hisob siyosatini shakllantirish, tushumlar va xarajatlar, shuningdek tariflar auditini o'tkazish masalalari amaliy misollar asosida tahlil qilingan.

Tadqiqot davomida tushumlar va xarajatlar auditini o'tkazish amaliyoti tahlil qilinib, xizmatlar tannarxi va tariflar shakllanishi o'rtasidagi bog'liqlik yetarli darajada nazorat qilinmayotgani, audit jarayonida xizmat sifati ko'rsatkichlari va aholi murojaatlarining inobatga olinmasligi aniqlangan.

Moslashuvchan hisob siyosati modeli uy-joy mulkdorlari shirkatlari va boshqaruvchi tashkilotlar uchun moliyaviy boshqaruv va xizmat ko'rsatish faoliyatining turli jihatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilishi lozim. Bunday modelning asosiy maqsadi -hisob siyosatini tashkiliy-huquqiy shakl, moliyaviy imkoniyatlar, xizmatlar ko'lam, tarif shakllanishi va mulkdorlar bilan munosabatlar kabi omillarga moslashtirishdan iborat.

Ushbu model asosida tuzilgan hisob siyosati nafaqat xizmat turlari bo'yicha tafovutlarni aniqlashtiradi, balki boshqaruv yondashuviga mos keladigan tarzda buxgalteriya va menejment hisobining integratsiyasini ham ta'minlaydi.

Hisob siyosatining iqtisodiy mazmunini to‘g‘ri aks ettirish va uni tashkilot faoliyatining amaliy ehtiyojlariga moslashtirish uchun, avvalo, ushbu tashkilotlar bajaradigan iqtisodiy faoliyat yo‘nalishlarini aniq belgilab olish zarur. Uy-joy mulkdorlari shirkatlari (UJMSH) va boshqaruvchi tashkilotlar (BT) tomonidan amalga oshiriladigan xizmatlar ko‘lami va xarakteri ularning buxgalteriya hisob yuritish uslubiyatiga bevosita ta‘sir qiladi. Shu bois, hisob siyosatini shakllantirishda iqtisodiy faoliyat yo‘nalishlari asosida metodik yondashuvlar ishlab chiqilishi lozim.

3-jadval

Boshqaruvchi tashkilotlari uchun audit indikatorlari tizimi va amaliy tahlil modeli (“Yangi hudud” boshqaruv tashkilotining 2023-2025 yillar moliyaviy ma‘lumotlari asosida)⁸

Audit indikatorlari	Normativ diapazon	2023 yil qiymati	2024 yil qiymati	2025 yil qiymati	Audit izohi
Xarajatlar rentabelligi (XR)	70-80%	91,7%	97,4%	98,1%	Xarajatlar keskin oshgan, tariflar daromadni qoplamayapti
Ma‘muriy xarajatlar ulushi (MXU)	10-15%	20,8%	23,1%,	25,5%	Boshqaruv xarajatlari haddan ortiq, optimallashtirish zarur
Shikoyat-sifat indeks (SSI)	≤ 10	11,4%	13,2%	15,1%	Foydalanuvchi noroziligi ortgan, xizmat sifati pasaygan
Tarif og‘ish koeffitsienti (TOK)	±5%	+7%	+10%	12,5%	Tariflar normativdan oshgan, lekin foyda oshmagan
Foyda koeffitsienti (FK)	≥5%	3,2%	0,6%,	0,4%	Foyda keskin kamaygan, iqtisodiy barqarorlik zaif
Ish haqi ulushi (IHU)	20-30%	34,1%	35,8%	37%	Ish haqi xarajatlari ortgan, bu xizmatlar narxiga bosim bermoqda
Tariflar balansi indeksi (TBI)	≈1,0	0,94	0,88	0,71	Ba‘zi xizmatlar zarar bilan ko‘rsatilmoqda
O‘z-o‘zini ta‘minlash koeffitsiyenti	≥1,0	1,03	0,97	0,82	Kompaniya 2023-yilda tashqi subsidiyalarsiz yashash imkonidan ayrilgan

Audit indikatorlari tizimini ishlab chiqish -buxgalteriya hisoboti, moliyaviy tahlil va boshqaruv qarorlarini qamrab oluvchi kompleks yondashuv bo‘lib, uy-joy mulkdorlari shirkatlarida xizmat sifatini moliyaviy ko‘rsatkichlar asosida baholash

8 “Yangi hudud” boshqaruv kompaniyasining 2023-2025 yillar moliyaviy ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

imkonini beradi. Bunday tizim yordamida auditorlar tariflar asosida shakllangan tushumlar, xarajatlarning iqtisodiy asosliligi, xizmat sifati va foydalanuvchi norozilik darajasi o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni baholaydilar. Audit indikatorlari tizimi faqat moliyaviy tahlil uchun emas, balki boshqaruv islohotlari, tarif siyosatini yangilash va aholiga axborot berish kabi sohalarda ham qo'llaniladi.

Yuqoridagi tahlildan ko'rinib turibdiki, audit indikatorlari orqali shirkat faoliyatining moliyaviy barqarorligi, boshqaruv samaradorligi va foydalanuvchi ishonchi darajasini raqamli asosda aniqlash mumkin. Masalan, 2025-yil uchun foyda koeffitsiyenti 0,4%ni tashkil etgan bo'lsa-da, umumiy xarajatlar tarkibida ma'muriy xarajatlar 25,1%ni egallagan. Bu esa boshqaruv tizimi islohotga muhtoj ekanini ko'rsatadi. Shuningdek, tarif og'ishi +12,5% bo'lishiga qaramay foyda oshmagan, bu esa tarif siyosatining adolatiligi bo'yicha savollar tug'diradi.

XAS-315 "Jiddiy xatolar tavakkalchiligini tashkilotlar va uning biznes muhitini bilish asosida aniqlash va baholash" xalqaro standarti talablari nuqtayi nazaridan ushbu 8 ta korxonalar hisobotlari tahlili shuni yaqqol namoyon etdiki, moliyaviy hisobotlardagi asosiy auditorlik xavflari raqamlarning miqdorida emas, balki ularni shakllantirish, tasniflash va taqdim etish uslubida mujassam.

4-jadval

Boshqaruvchi tashkilotlarda audit o'tkazishda xavflar tahlili (XAS 315)⁹

Korxonalar	Hudud	Daromad-tannarx tasnifi	Qisqa muddatli aktivlar / investitsiyalar	Debitorlik qarzlari	Pul mablag'lari	Hisobot taqdimoti	Umumiy xavf
Abu Dabi JEK	Toshkent sh.	Nomutanosib	Noaniq	O'rta	Past	Kamchilik bor	Yuqori
Ey dil servis	Farg'ona viloyati	Tannarx shubhali	O'rta	Yuqori	O'rta	Kamchilik bor	Yuqori
Navro'z prof servis	Toshkent sh.	Nomutanosib	Yuqori	O'rta	O'rta	Kamchilik bor	Yuqori
Profil avenue	Toshkent sh.	Tannarx yo'q	Juda yuqori	Yuqori	Juda past	Jiddiy kamchilik	Juda yuqori
Restate	Toshkent sh.	Nomutanosib	O'rta	O'rta	O'rta	Kamchilik bor	O'rta
Taqiyatas uy-joy xizmetlari	Qoraqalpog'iston Respublikasi	Tannarx shubhali	O'rta	Yuqori	O'rta	Kamchilik bor	Yuqori
Yangi yoshlar massivi	Surxondaryo viloyati	Nomutanosib	O'rta	O'rta	O'rta	Kamchilik bor	O'rta

XAS-315 "Jiddiy xatolar tavakkalchiligini tashkilotlar va uning biznes muhitini bilish asosida aniqlash va baholash" xalqaro standarti talablari nuqtayi nazaridan

⁹ Muallif tomonidan tuzilgan

ushbu 8 ta korxonalar hisobotlari tahlili shuni yaqqol namoyon etdiki, moliyaviy hisobotlardagi asosiy auditorlik xavflari raqamlarning miqdorida emas, balki ularni shakllantirish, tasniflash va taqdim etish uslubida mujassam.

5-jadval

Boshqaruvchi tashkilotlarda audit o'tkazishda muhimlik darajasi hisob-kitobi (XAS 320)¹⁰

Korxonalar	Hudud	Sof tushum (asos)	Umumiy muhimlik (5%)	Bajarilish muhimligi (70%)	Ahamiyatsiz chegaralar
Abu Dabi JEK	Toshkent sh.	O'rta	O'rta	O'rta	Past
Ey dil servis	Farg'ona viloyati	O'rta	O'rta	O'rta	Past
Navro'z prof servis	Toshkent sh.	O'rta	O'rta	O'rta	Past
Profil avenue	Toshkent sh.	Yuqori	Yuqori	Yuqori	O'rta
Restate	Toshkent sh.	Past	Past	Past	Juda past
Taqiyatas uy-jay xizmetlari	Qoraqalpog'iston Respublikasi	O'rta	O'rta	O'rta	Past
Yangi yoshlar massivi	Surxondaryo viloyati	O'rta	O'rta	O'rta	Past

XAS 320-“Auditni rejalashtirish va bajarishda muhimlik” xalqaro standarti talablari nuqtayi nazaridan ushbu 8 ta korxonalar moliyaviy hisobotlari tahlili shuni ko'rsatdiki, muhimlik darajasini to'g'ri belgilash audit jarayonida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Muhimlik nafaqat audit hajmini belgilaydi, balki auditor e'tiborini aynan qaysi ko'rsatkichlar va qaysi moddalarga qaratish kerakligini belgilab beradi.

6-jadval

Boshqaruvchi tashkilotlarda audit o'tkazishda tahliliy tekshiruv natijalari (XAS 520)¹¹

Korxonalar	Hudud	Aktivlar dinamikasi	Kapital ulushi	Sof foyda marjasi	Tahliliy shubha
Abu Dabi JEK	Toshkent sh.	Nomutanosib	Noaniq	Yuqori	Hisobot shakli
Ey dil servis	Farg'ona viloyati	Kamayish	Oshgan	Yuqori	Tannarx
Navro'z prof servis	Toshkent sh.	Barqaror	O'rta	O'rta	Investitsiyalar
Profil avenue	Toshkent sh.	Kamayish	Oshgan	Juda yuqori	Tannarx yo'q
Restate	Toshkent sh.	Barqaror	O'rta	O'rta	Debitorlar
Taqiyatas uy-jay xizmetlari	Qoraqalpog'iston Respublikasi	Kamayish	O'rta	Yuqori	Debitorlar
Yangi yoshlar massivi	Surxondaryo viloyati	Barqaror	O'rta	O'rta	Tasnif

Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, korxonalar o'rtasida moliyaviy ko'rsatkichlar hajmi turlicha bo'lgani sababli, muhimlik chegarasi ham turlicha

10 Muallif tomonidan tuzilgan

11 Muallif tomonidan tuzilgan

shakllanadi. Masalan, Profil avenue kabi katta aylanmaga ega korxonada muhimlik chegarasi yuqori bo‘lib, katta miqdordagi xatoliklarga auditorlik fikriga sezilarli ta‘sir qiladi. Aksincha, Restate kabi aylanmasi nisbatan kichik korxonada esa juda kichik summalar ham muhim deb baholanishi mumkin.

Eng muhim jihat shundaki, tahliliy tekshiruvlar daromad va tannarx tasnifidagi muammoni deyarli barcha korxonalarda aniqlab berdi. Sof foyda marjasining g‘ayritabiiy darajada yuqori bo‘lishi, yalpi foydaning tushumga yaqin chiqishi kabi holatlar aynan tahliliy usul orqali aniqlandi. Bu esa XAS 520-“Tahliliy tartib-taomillar” xalqaro standartining amaldagi samaradorligini namoyon etadi: tahliliy tekshiruvlar auditorga qaysi sohada chuqur hujjatli tekshiruv o‘tkazish zarurligini aniq ko‘rsatib beradi.

Quyidagi jadvalda boshqaruv servis kompaniyalarida tashqi audit o‘tkazish jarayonida aniqlangan asosiy muammolar, ularning qaysi korxonalarda uchrashi hamda taklif etilgan yechimlar keltirilgan. Tahlil natijalariga ko‘ra, muammolar asosan debitorlik nazoratining zaifligi va moliyaviy ko‘rsatkichlarning to‘liq ochib berilmagani bilan bog‘liq. Taklif etilgan choralar moliyaviy barqarorlikni oshirish va audit samaradorligini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, aniqlangan muammolarning deyarli barchasi korxonalarining moliyaviy natijalari yomonligi bilan bog‘liq emas. Aksincha, ko‘p holatlarda korxonalarda daromad mavjud, aktivlar yetarli, ayrimlarida esa kapital ulushi ham ijobiy tendensiyaga ega. Biroq, ushbu ijobiy moliyaviy ko‘rsatkichlar hisobotlarda to‘g‘ri aks ettirilmagani, moddalar noto‘g‘ri tasniflangani va nazorat mexanizmi yetarli darajada ishlamagani sababli auditorlik xavfi yuzaga kelmoqda.

7-jadval

Boshqaruvchi tashkilotlarda tashqi audit o‘tkazish bo‘yicha mavjud muammolar va yechimlar¹²

Muammo	Qaysi korxonalarda	Yechim
Tannarx ko‘rsatilmagan yoki noto‘g‘ri	Deyarli barchasida	Daromad-tannarx qayta tasnifi
Qisqa muddatli aktivlar mohiyati noaniq	Profil avenue, Navro‘z, Abu Dabi	Shartnoma va tasdiqlar
Debitorlik nazorati zaif	Ey dil servis, Taqiyatas	Qarz yoshi tahlili va rezerv
Pul mablag‘lari past	Profil avenue, Abu Dabi	Pul oqimlari nazorati
Hisobot taqdimoti kamchiliklari	Barchasida	Me‘yorlarga moslashtirish
Ichki nazorat zaif	Barchasida	Ichki audit elementlari

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, aniqlangan muammolarning deyarli barchasi korxonalarining moliyaviy natijalari yomonligi bilan bog‘liq emas. Aksincha, ko‘p holatlarda korxonalarda daromad mavjud, aktivlar yetarli, ayrimlarida esa kapital ulushi ham ijobiy tendensiyaga ega. Biroq, ushbu ijobiy

¹² Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

moliyaviy ko'rsatkichlar hisobotlarda to'g'ri aks ettirilmagani, moddalar noto'g'ri tasniflangani va nazorat mexanizmi yetarli darajada ishlamagani sababli auditorlik xavfi yuzaga kelmoqda.

Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatdiki, barcha korxonalarda asosiy audit xavfi moliyaviy natijalar hajmida emas, balki daromad va xarajatlarni noto'g'ri tasniflash, debitorlik qarzlarning qaytarilish ehtimoli hamda ichki nazorat tizimining zaifligi bilan bog'liq.

8-jadval

Uy-joy mulkdorlari shirkatlari (UJMSH)da audit o'tkazishda xavflar tahlili¹³

Korxonalar	Hudud	Daromad-xarajat tasnifi	Debitorlik qarzlari	Pul mablag'lari	Hisobot taqdimoti	Ichki nazorat	Umumiy audit xavfi
Ka-fayz JEK	Xorazm viloyati	Nomutanosib	O'rta	Past	Kamchilik mavjud	Zaif	Yuqori
Ishonch-Shaxriston	Xorazm viloyati	Shubhali	Yuqori	O'rta	Kamchilik mavjud	Zaif	Yuqori
Farog'on makon UJMSH	Farg'ona viloyati	Nomutanosib	O'rta	O'rta	Kamchilik mavjud	O'rta	O'rta
Urganch Hamid Anabibi UJMSH	Urganch shahri	Shubhali	Yuqori	O'rta	Kamchilik mavjud	Zaif	Yuqori
Xorazm gaz payvandchilari	Xorazm viloyati	Nomutanosib	Yuqori	Past	Kamchilik mavjud	Zaif	Yuqori
Abror bobir MCHJ	Xorazm viloyati	Shubhali	O'rta	O'rta	Kamchilik mavjud	O'rta	O'rta
Mehr-35 UJMSH	Xorazm viloyati	Nomutanosib	O'rta	O'rta	Kamchilik mavjud	O'rta	O'rta
Shoxruxobod xo'qand UJMSH	Farg'ona viloyati	Shubhali	Yuqori	Past	Kamchilik mavjud	Zaif	Yuqori

Uy-joy mulkdorlari shirkatlarida muhimlik darajasi nisbatan past bo'lgani sababli, kichik miqdordagi xatoliklar ham moliyaviy hisobot ishonchliligiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin.

¹³ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

Jadvalda uy-joy mulkdorlari shirkatlar faoliyati bo'yicha muhimlik darajasi baholangan. Ko'rsatkichlar asosan o'rta darajada bo'lib, bu moliyaviy hisobotlarda xatoliklar ehtimoli mavjudligini bildiradi.

Shu bilan birga, ahamiyatsiz xatolik chegarasining past darajada belgilanishi auditorlik tekshiruvlarida aniqlik va ehtiyotkorlikni kuchaytirishni talab etadi. Jadval natijalari audit xatarlarini baholash va tekshiruv hajmini belgilashda qo'llaniladi.

9-jadval

Uy-joy mulkdorlari shirkatlari(UJMSH)da muhimlik darajasi hisob-kitobi¹⁴

Korxonona	Faoliyat hajmi	Umumiy muhimlik	Bajarilish muhimligi	Ahamiyatsiz xatolik chegarasi
Ka-fayz JEK	Past	Past	Past	Juda past
Ishonch-Shaxriston	O'rta	O'rta	O'rta	Past
Farog'ona makon UJMSH	O'rta	O'rta	O'rta	Past
Urganch Hamid Anabibi UJMSH	O'rta	O'rta	O'rta	Past
Xorazm gaz payvandchilari	O'rta	O'rta	O'rta	Past
Abror bobir MCHJ	O'rta	O'rta	O'rta	Past
Mehr-35 UJMSH	Past	Past	Past	Juda past
Shoxruxobod xo'qand UJMSH	O'rta	O'rta	O'rta	Past

Quyidagi jadval moliyaviy ko'rsatkichlar o'rtasidagi nisbatlar va dinamikani baholash orqali audit xavflarini aniqlashga xizmat qiladi.

Ushbu jadvalda uy-joy mulkdorlari shirkatlarida audit o'tkazish jarayonida aniqlangan aktivlar holati, sof moliyaviy natijalar hamda tahliliy shubha manbalari bo'yicha natijalar umumlashtirilgan. Tahlil qilingan korxonalar kesimida aktivlar holati barqaror emas yoki kamayish tendensiyasiga ega bo'lib, bu ayrim uy-joy mulkdorlari shirkatlarida moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligining pastligini ko'rsatadi.

Shuningdek, sof moliyaviy natijalar asosan past yoki o'rta darajada shakllangani, daromad manbalari yetarli darajada barqaror emasligini va xarajatlar ustidan nazoratning sustligini anglatadi. Tahliliy shubha manbalari sifatida daromadlar, xarajatlar, debitorlik qarzlari hamda likvidlik ko'rsatkichlari ajratib ko'rsatilgan bo'lib, aynan ushbu yo'nalishlar audit jarayonida alohida e'tibor talab etadi.

14 Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

Jadval natijalari uy-joy mulkdorlari shirkatlarida ichki nazorat tizimini kuchaytirish, moliyaviy intizomni mustahkamlash hamda audit tekshiruvlarini riskka asoslangan yondashuv asosida olib borish zarurligini ko'rsatadi.

Quyidagi, 10-jadvalda uy-joy mulkdorlari shirkatlarida audit o'tkazish jarayonida aktivlar holati, sof moliyaviy natijalar hamda tahliliy shubha manbalari bo'yicha umumiy holat aks ettirilgan. Natijalarga ko'ra, ko'plab korxonalarda aktivlar barqaror emas yoki kamayish tendensiyasiga ega bo'lib, sof moliyaviy natijalar asosan past va o'rta darajada shakllangan. Tahliliy shubha manbalari daromadlar, xarajatlar, debitorlik qarzlari va likvidlik bilan bog'liq bo'lib, audit jarayonida ushbu yo'nalishlarga ustuvor e'tibor qaratish zarurligini ko'rsatadi.

10-jadval

Uy-joy mulkdorlari shirkatlari(UJMSH)da audit o'tkazishda tahliliy tekshiruv natijalari¹⁵

Korxonona	Aktivlar holati	Sof moliyaviy natija	Tahliliy shubha manbai
Ka-fayz JEK	Barqaror emas	O'zgaruvchan	Daromad manbalari
Ishonch-Shaxriston	Kamayish	Past	Xarajatlar
Farog'on makon UJMSH	Barqaror	O'rta	Debitorlar
Urganch Hamid Anabibi UJMSH	Kamayish	O'rta	Xarajatlar
Xorazm gaz payvandchilari	Barqaror emas	Past	Likvidlik
Abror bobir MCHJ	Barqaror	O'rta	Tasniflash
Mehr-35 UJMSH	Kamayish	Past	Debitorlar
Shoxruxobod xo'qand UJMSH	Barqaror emas	Past	Pul oqimlari

